IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI HAYVONLAR HAMDA ULARNI MUHOFAZA QILISH

[1]N. A. NORMATOVA

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

[2]U. R. KIMSANOV

Jismoniy madaniyat fakulteti 4-kurs sirtqi talabasi

[3]O. A. ODILJONOV

Tabiiy fanlar yo‘nalishi 4 -bosqich talabasi

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Annotasiya: Ushbu maqolada bugungi kunda hayvonlarning insonlar hayotidagi o‘rni va O‘zbekiston hududidagi hayvonlarni muhofaza qilish masalalari to‘g‘risida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: Hayvonot, turkum, qushlar, xalqaro, subtropik, baliq, kasallik, tabiat, muhofaza, fauna.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль животных в жизни людей на сегодняшний день и вопросы защиты животных в Узбекистане.

Ключевые слова: Животные, виды, птицы, интернациональные, субтропические, рыбы, болезни, природа, охрана, фауна.

Annotation: This article talks about the role of animals in people’s lives today and the issues of animal protection in the territory of Uzbekistan.

Key words: Animal, species, birds, international, subtropical, fish, disease, nature, conservation, fauna.

Bugungi kunga kelib, yer yuzida ko‘plab insonlarning tabiatga bo‘lgan noto‘g‘ri munosabati sababli ba’zi hayvonlar mutloq yo‘qolib ketish havfi ostida qolmoqda. Shu bois ona zaminimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida ham hayvonot dunyosini himoya qilish yuzasidan ko‘plab chora – tadbirlar olib borilmoqda.

Insonlar hoh jismonan hoh ruhan mehnat bilan shug‘ullanishlaridan qat’iyyan nazar madaniy dam olishlari zarur hisoblanib, bunda qushlar tabiatga ajoyib ko‘rk bahshida etib, insonlarga estetik zavq bag‘ishlaydilar.

“XX asrning 2-yarmidan boshlab qushlarning yashash joylarini saqlab qolishga e’tibor kuchaytirildi. Muhofaza qilish hududlari (milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar) tashkil etila boshlandi. 1971-yil suv va botqoqlik hududlari muhofazasi bo‘yicha xalqaro konvensiya ishlab chiqildi. Qushlar muhofazasi bo‘yicha xalqaro hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda «Biologik xilma-xillik to‘g‘risida» gi, 1997-yilda «Yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to‘g‘risida»gi, 1998-yilda «Ko‘chib yuruvchi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, 2001-yilda «Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa, suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo‘lgan suv botqoqlik joylar to‘g‘risida»gi konvensiyalarga qo‘shildi. «Ingichka tumshuqli balchiqchi, Sibir turnasi (oq turna), Afrika — Yevrosiyoning suvda suzuvchi ko‘chmanchi qushlarini muhofaza qilish tad-birlari yuzasidagi hamfikrlik meleorandumlari» kabi xalqaro bitimlar O‘zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan.

O’zbekiston hayvonot dunyosi nihoyatda keng. Qo‘shni respublikalar hayvonot dunyosiga juda o‘hshash bo‘lib, subtropik ko‘rinishdadir. Respublikadagi sutemizuvchi hayvonlar 6 turkum: hashoratho‘rlar (6), qo‘lqanotlilar (20), quyonsimonlar (2), kemiruvchilar (37), yirtqichlar

(24), tuyoqlilar (8) ga mansub. Eng nodir va kam uchraidigan hayvonlardan burama shohli echki, ayiq, qoplon, qoraquloq, silovsin, ilvirs, sirtlon, qunduz, manul, jayron, argali, qo‘shoyok, hind asalxo‘ri, ola kuzan, buhoro bug‘usi, Ustyurt kiyiki, qizilqum qo’yi, buhoro qo‘yi yirik shomshapalak, respublika “Qizil kitobiga kiritilgan’’[1]. O‘zbekiston faunasida qushlarning ham ahamiyati katta hisoblanib ular ham o‘rganilib kelinadi.

O‘zbekiston qushlarning 24 turkumga mansub 410 ga yaqin turi bor, ulardan 184 turi chumchuqsimonlar turkumiga kiradi. Qushlarning 24 turi, jumladan, birqozon, jingalakdor birqozon, oq laylak, qora laylak, qizil g‘oz, vishildoq, oqqush, kichik oqqush, marmar o‘rdak, oqbosh o‘rdak, suvqiyg‘ir, qirg‘iy burgut, cho‘l burgut, bolyatur, qumoy, ilonxo‘r burgut, mallabosh lochin, itog‘li, oq turna, oddiy tuvaloq, bizg‘aldoq, yo‘rg‘a tuvaloq, qorabovur, torg‘oq, osiyo loyxo‘ragi, qum chumchuq va boshqalar „Qizil kitobi“ga kiritilgan’’[5].

O‘zbekiston hududida bugungi kunda ko‘plab qushlarning turlari o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan,

‘‘**Kaptarsimonlar** (*Columbiformes*) turkumi o‘rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, qanotlari baquvvat va o'tkir. Tumshug'i ustining asosida yumshoq teri bo'rtmasi bor. Iligi old tomondan ko'ndalang qalqonchalar, orqa tomondan ko'p burchakli plastinkalar bilan qoplangan. O'zbekistonda kaptarlar (*Columbidae*) oilasining vakillari uchraydi. Oila belgilari turkum belgilariga aynan o'xshash bo’lib, O'zbekiston faunasida kaptarlarning ikkita urug'i uchraydi.

O‘zbekiston faunasida chumchuqsimonlarning 21 ta oilasining vakillari uchraydi.

Qurrak — *Streptopelia* tur L.O'zbekistonda keng tarqalgan. Qizilishtonsimonlar (*Piciformes*) turkumi kichik va o'rtacha kattalikdagi qushlar bo'lib, asosan daraxtda yashashga moslashgan. Ikkita barmog'i oldinga, ikkita yoki bitta barmog'i orqaga qaragan. Keyingi barmoqlarining bittasi yon tomonga burilishi mumkin. Tumshug'i uzun, to'g'ri va o'tkir iskanaga o'xshash. Rul patlari qattiq. O'zbekiston faunasida bitta — qizilishtonlar (*Picidae*) oilasining turlari tarqalgan’’[3].

“**Qushlarning amaliy ahamiyati**: Qushlarning inson xo‘jaligidagi ahamiyati juda katta hisoblanadi. Uy parrandalari qishioq xo‘jaligida g'oyat katta ahamiyatga ega bo’lib, ovlanadigan kushlardan olinadigan mahsulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik qushlar zararkunanda hasharotlarni va kemiruvchilarni qirib, qishloq xo’jaligiga ulkan foyda keltiradi. Bir qator kushlar qadim zamonlardan buyon insonlar tomonidan xonakilashtirilgan va hozir ham xonakilashtirilmoqda. Bugingi vaqtda yer yuzida 100 mlrd ga yaqin qushlar yashaydi. Ba’zi qushlar boshqa hayvonlarga ozuqa sifatida xizmat qiladi. Qushlar o'simlik urug'ini tarqatishda ham katta ahamiyatga ega. Xususan kolibrilar, nektarchilar o'simliklarning gullarini changlatadi. Ko'pchilik yovvoyi kushlar (kaklik, bedana, bulduruq, qur, karqur, qirg'ovul), suvda suzuvchi qushlardan — o'rdak va g'ozlar ijtimoiy jihatidan ozuqa sifatida ovlanadi. Gaga yirik dengiz o'rdagi bo'lib, dengiz qirg'og'iga uya quradi. Ular o'z uyasiga qalin qilib momiq patlarini to'shaydi. Gaga momig'i juda yumshoq va issiqni kam o'tkazadi. Yana bir muhim jihati shundan iboratki, qushlarning azotli va fosforli tezagi ham qishloq xo’jaligida o'g'it sifatida foydalaniladi’’[4].

“Butun dunyo aholisi 1-aprelni “Xalqaro qushlar kuni” sifatida nishonlaydi. 1894-yilda ilk bora Amerika Qo'shma Shtatlarida keyinchalik boshqa mamlakatlarida va ommaviy axborot vositalari orqali bu kun Yevropada ham keng miqyosda o'tkazila boshlandi’’[6].

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hayvonot olami tabiatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, insonlar uchun hayvonot olami ozuqa sifatida ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Х.Х.ЗОКИРОВ,Ш. А. КУЛДОШЕВА. ТАЪБИАТНИ МУХОФАЗА КИЛИШ

ВА УНДАН ОКИЛОНА ФОЙДАЛАНИШ. VII:боб (227-бет).
2. Fauna mira. Ptitsm. M., 1991; Jizn jivotnnx, t. 5, M., 1970; Obshaya ornitologiya, M., 1982; O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. T., 2003; Soxraneniye biologiches-kogo raznoobraziya natsionalnaya strategiya i plan deystviy RUz, T, 1998;Laxanov J.L., O‘zbekistonning umurtqali hayvonlari aniq-lagichi, T, 1988; Vinokurov A.A., Redkiye ptitsm mira, M., 1987.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi. S. DADAYEV, S. TO‘YCHIEV, P. HAYDAROVAUMURTQALILAR ZOOLOGIYASI Laboratoriya mashg‘u!otlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta ’lim vazirligi pedagogika oliy o ‘quv yurtlari biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi ixtisosligi talabalari uchun o ‘quv qo ‘llanma sifatida nashrga tavsiya etgan O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006 (bet-176-178).
4. S.DADAYEV, Q.SAPAROV. ZOLOGIYA (Xo‘rdalilar 2-qism) 0‘zbekislon Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5140400 - biologiya ta Tim yo ‘nalishi bakalavriat bo 'yicha oliy o ‘quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilganСкоЧроп nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2011. V:bob (379 – bet).
5. https://uz.m.wikipediya.org
6. https://geografiya.uz